

FANLARARO INTEGRATSIYA: “HAYRAT-UL ABROR”DA BURJ NOMLARI

Mardanova Dilshoda Sadriiddin qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası doktoranti

dilshodamardanova1996@gmail.com

Annotatsiya. Koinotni anglash ehtiyoji nafaqat aniq fanlarning, balki til tizimining shakllanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Astronomiya va tilshunoslik o'rtasidagi integratsiya onomastika va etimologiya sohalarida yaqqol nomoyon bo'ladi. Ushbu aloqa Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” dostonidagi burj nomlari misolida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: “Hayrat-ul abror”, astronomiya, burj, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadiy, Dalv, Hut.

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ: НАЗВАНИЯ ЗНАКОВ ЗОДИАКА В «HAYRAT-UL ABROR»

Марданова Дильшода Садриддин кизи

аспирантка кафедры узбекского языка и литературы

Самаркандского государственного педагогического института

Аннотация. Потребность в познании вселенной оказала сильное влияние не только на формирование точных наук, но и на развитие языковой системы. Интеграция астрономии и лингвистики проявляется особенно ярко в областях ономастики и этимологии. В настоящем исследовании это взаимодействие изучается на примере названий знаков зодиака в поэме Алишера Навои «Hayrat-ul Abror».

Ключевые слова: «Hayrat-ul Abror», астрономия, знак зодиака, Хамаль, Савр, Джавзо, Саратон, Асад, Сунбула, Мезон, Акраб, Кавс, Джадий, Далв, Хут.

INTERDISCIPLINARY INTEGRATION: ZODIAC NAMES IN “HAYRAT-UL ABROR”

Mardanova Dilshoda Sadridin qizi

*PhD student at the Department of Uzbek Language and Literature,
Samarkand State Pedagogical Institute*

Abstract. *The need to understand the universe has strongly influenced not only the development of exact sciences but also the formation of language systems. The integration of astronomy and linguistics is particularly evident in the fields of onomastics and etymology. This study examines this connection through the example of zodiac names in Alisher Navoi's poem “Hayrat-ul Abror.”*

Keywords: *“Hayrat-ul Abror,” astronomy, zodiac, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadiy, Dalv, Hut.*

Qadim zamonlardan beri insonlar olamni – er va osmondagi jamiyki yaratishlarni anglashga, tabiat va tabiat hodisalarini o'rganishga, ularga moslashishga yoki o'ziga bo'ysundirishga harakat qilib kelishgan. Vaqt, zamon, hisob tushunchalari ham insonlarning ushbu sa'y-harakatlari mahsuli, desak adashmagan bo'lamiz. Olam yoritqichlari – quyosh va oy azaldan insonlarga yil hisobini yuritishda asos, yulduzlar esa olis va mashaqqatli safarlarda mo'ljil vazifasini bajarib kelgan. Qadim Sharqda kishilar yoritqichlarga qarab mo'ljil olish uchun osmonning ma'lum qismida joylashgan yorug' yulduzlarni alohida to'dalarga ajratib, ularga *yulduz turkumlari* deb nom berganlar. Yulduz turkumlarini birinchilar qatorida cho'ponlar, ovchilar va sayohatchilar ochishgan. Shuning uchun ham ularning ko'pchiligi shakl va buyumlar (Uchburchak, Tarozi, Cho'mich), hayvonlar, jonivorlar va parrandalar (Katta Ayiq, Arslon, Kit, Oqqush) nomidadir. Keyinchalik yunon afsonalaridagi qahramon nomlari

(Andromeda, Pegas, Kassiopiya) ahamiyat kasb eta borgan. Bu nomlar hozirgi yulduzlar ilmiga oid fanda ham asos qilib olingan.[4:12]

Astronomiya fanida “ekliptika” degan tushuncha bo‘lib, Quyoshning osmon gumbazidagi ko‘rinma yillik harakat yo‘lini bildiradi va u Yerning Quyosh atrofida aylanishi natijasida hosil bo‘ladi. Yer ekliptika aylanasi bo‘ylab soat strelkasiga qarama qarshi yo‘nalishda harakatlanganligi uchun biz Yer harakatini sezmagan holda Quyosh ekliptika aylanasi bo‘ylab harakatlanyapti deb o‘ylaymiz. Ana shu ekliptika tekisligida 12 yulduz turkumi joylashgan. Bu yulduz turkumlari *zodiakal yulduz turkumlari* deyiladi. Chunki yulduz turkumlarining ko‘pchiligi hayvon nomlari bilan atalgan[4:25]. Zodiak atamasi ham yunoncha “zodiakos”, *zoon – hayvon* o‘zagidan olingan.

Quyoshning osmondagi 12 ta yulduz turkumidan yillik o‘tishini ifodalash uchun “zodiak” atamasi bilan bir qatorda “*burj*” so‘zi ham qo‘llaniladi. “Burj” so‘zi arabcha, astronomiyaga oid tushuncha bo‘lib, quyoshning yillik harakat yo‘li bo‘ylab joylashgan o‘n ikkita yulduzlar turkumining majmuyi va ularning har biri (Hut, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadiy, Dalv)ni ifodalaydi. [O‘TIL 1-jild]

Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” dostonida “basmala”, hamd, munojotdan keyin kelgan na‘t qismida (5-na‘tda) an‘anaga muvofiq Me‘roj kechasining ta‘rifi keltiriladi. Diniy manbalarga ko‘ra, Muhammad payg‘ambarning Makkadan Quddusga borishi va u erdan Buroq otiga minib ko‘kka chiqishi va xudo bilan muloqotda bo‘lib qaytgan tuni — Me‘roj tuni deb ataladi. Mazkur bobda Navoiy an‘anani davom ettirib, shu voqeani zo‘r mahorat bilan tasvirleydi. Bunda Muhammad payg‘ambarning sayyoralar, yulduzlar, o‘n ikki burj aro ko‘kka ko‘tarilishi tasviri ajoyib manzara kasb etadi. Navoiy ilmi nujumdan yaxshi ma‘lumotga ega bo‘lganligi sababli sayyora, yulduzlarning nomlarinigina amas, ularning xususiyatlarini ham ko‘zda tutadi va tashxis san‘atidan foydalanib, koinotdagi jonsiz narsalarni insoniy sifatlarda jonlantiradi va Me‘roj tunining mo‘jizaviy holatini tasvirleydi. [2:336]

Ham Hamal-u Savr berib jon anga,

Jon etibon ikkisi qurbon anga.

Hamal – quyosh yili hisobida birinchi oyning nomi (mart). [ANATIL 4-jild 147-bet]. Arabchadan tarjima qilinganda “*qo‘y*”, “*qo‘zichoq*” ma’nosini bildiradi. Qadimgi astronomlar bu burjdagi yulduzlar jamlanmasini “qo‘yning boshi”ga o‘xshatib tasavvur qilishgan. **Savr** – ast. o‘n ikki burjning biri. Shamsiya yil hisobida ikkinchi oyning nomi (22-aprel – 21-may) [O‘TIL 3- jild 417-bet]. Arabchada “*buqa*”, “*ho‘kiz*” degan ma’nolarni bildiradi. Yulduz xaritalarida hamlaga shaylanayotgan kuchli buqa tarzida tasvirlangan. Hamal bahorgi tengkunlik – yangi yil (Navro‘z), Savr esa bahorning ayni qizigan paytini anglatadi. Ikkisida ham “tabiat jonlanadi”. “Anga” deyilganda ma’naviy-tasavvifiy nuqtai nazardan Payg‘ambarimiz (s.a.v) nazarda tutilgan. “Jon berish”, “jon qurbon qilish” da esa taslimiyat, fidoyilik, bir borliqning ikkinchisida yo‘q bo‘lib ketish semasi nazarda tutilgan. Yuqoridagi baytni “tabiat”, “falakkiyot”, “tasavvuf” va “ishq” semantik maydonlari kesishmasida tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ham tongibon olida Javzo kamar,

Ham Saraton tuz bo‘lubon jilvagar.

Javzo – ast. o‘n ikki burjning biri. Shamsiya yil hisobida uchinchi oyning nomi (22-may – 21-iyun) [O‘TIL 2- jild 61-bet]. Egizaklar burji ham deb ataladi. “Javzo xizmatga bel (kamar) bog‘ladi” mazmunudagi baytda “Javzo kamari” birikmasi (inglizcha “Orion belts” – o‘zbekcha “Ovchi belbog‘i”) astronomiyaga oid tushuncha bo‘lib, Javzo burji turkumidagi uchta yorqin yulduzga ishora qiladi. Chunki ular osmonda aynan “kamar” shaklida – Ovchi shaklidagi yulduzlar turkumining bel qismida (ovchining belbog‘i kabi) joylashgan. Bu yorqin uch yulduz – Alnitak (kamarning chap tomonida), Alnilam (kamar o‘rtasida), Mintaka (kamarning o‘ng tomonida) nomlari ham arabchadan olingan bo‘lib, Al-Nitham Nazm (The String of Pearls) “*Marvaridlar shodasi*”, “*ipga terilgan marjon*”, Al-Nitak: Nitoq (The Girdle) “*Tasma*”, Al-Mintakah: Mintaqa (The Belt) “*Kamarband*” “*Belbog‘*” ma’nolarini bildiradi.[8: 304-315]

Saraton – ast. o‘n ikki burjning biri. Shamsiya yil hisobida to‘rtinchi oyning nomi (22-iyun – 21-iyul) [O‘TIL 3- jild 446-bet]. Saraton arabchada “*qisqichbaqa*” ma’nosini bildiradi.

Sher yo 'lidin tutubon go 'shai,

Sunbula raxshig 'a bo 'lub to 'shai.

Palla yo 'li gardidin iksir sanj,

Agrab aro no 'shu davo, nishu ranj.

Qavs tutub chilla duosi uchun,

Jadi berib fulla g 'izosi uchun.

Dalvg 'a Yusuf kibi solmay nazar,

Hutda Yunus kibi qilmay maqar

Yel kibi chun qat 'i buruj aylabon,

Arsh fasilig 'a uruj aylabon. [1:43-44]

Dalv – ast. o 'n ikki burjning biri. Shamsiya yil hisobida o 'n birinchi oyning nomi(22-yanvar – 21-fevral) [O'TIL 1- jild 548-bet]. Arabchada “*chelak*”, “*mesh*” ma'nolarini bildiradi. **Hut** – ast. o 'n ikki burjning biri. Shamsiya yil hisobida o 'n ikkinchi oyning nomi(22-fevral – 21-mart). Arabcha “*katta nahang baliq, kit*” ma'nolarini beradi.[O'TIL 5-jild 566-bet] Dalv burji Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida “**Ko'nak**” leksemasi bilan, Hut burji esa “**Baliq**” leksemasi bilan ifodalangan:

Yana O'g'laq, Ko'nak va Baliq keldi,

Bular tuqqach, osmon yorishdi ...[3: 83]

Ko'nak so'ziga “Devoni lug'otit turk”da “*obdasta*” deb izoh berilgan.[DLT I jild.373-bet] “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “*qimiz solib qo'yish uchun,suyuqliklar saqlash uchun maxsus ravishda teridan qilingan idish,sanoch,mesh*” deya izohlangan.[O'TIL I jild – 415-bet; II jild – 19-bet.] **Qovg'a** so'zi esa dialektlarda “*yog'och paqir,chelak*” ma'nosida ishlatiladi [O'TIL II jild – 592-bet] Demak, bu leksemalarni birlashtiruvchi sema *suyuqlik*, ya'ni *suv* deyishimiz mumkin. **Dalv (Qovg'a)** zodiakda ham *Aquarius*, ya'ni lotincha “*suv tashuvchi*”deyiladi. Yuqoridagi baytda keltirilgan “*Dalvg'a Yusuf kibi solmay nazar*” misrasi “*quduq*” semasiga (Yusuf payg'ambarning akalari tomonidan tashlangan quduqqa), “*Hutda Yunus kibi qilmay maqar*” misrasi Yunus payg'ambarni yutib yuborgan “*baliq*”ga ishora qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” dostonida burj nomlari va astronomik tushunchalarning qo‘llanilishi shoirning nafaqat badiiy mahoratini, balki ulkan ilmiy salohiyatini ham ko‘rsatadi. Shoir koinot terminologiyasini lisoniy qoliplarga solish orqali, turkiy tilning nafaqat badiiy, balki ilmiy-falsafiy qamrovini ham namoyish etgan. Aniq fanlar atamalarining matnga singib ketishi mumtoz adabiy tilimizning boyligini oshirishga; badiiy tasvir vositasi sifatida asarning badiiy ta’sirchanligini ta’minlashga; koinot, inson ruhiyati va ularning tildagi in’ikosini ifodalovchi murakkab butunlikni yuzaga keltirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 7-jild: Xamsa: Hayratul-abror. T.: «Fan», 1991.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 9-jild: Xamsa: Layli va Majnun. T.: «Fan», 1992.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1972. – 964 b. [80-83-betlar].
4. Zokirov M., Bekmirzayeva X. Umumiy astronomiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020. – 190 b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (I, II, III, IV, V jildlar). – Toshkent, 2006.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати (I, II, III, IV жилдлар). – T.: Фан, 1983
7. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк.(I,II,III жилдлар). – T., 1963.
8. Allen, R.H. (1899). Star names and their meanings. New York, NY; London, UK: G.E. Stechert. P.599; pp. 304-305.